

THE RELATIONSHIP BETWEEN MENTAL DEVELOPMENT AND EDUCATION

Muratova Shoista

SamDTU Pedagogika-psixologiya kafedrası v.b.dosenti, p.f.d.

E-mail:mleyla84@inbox.ru

Tel: (91) 3290154

Abdurashidova Sitora

SamDTU Stomatologiya fakulteti 202 guruh talabasi

Abstract: *In this article, representatives of the theory that training and upbringing are extremely important in the mental development of children, that training and mental development are independent of each other, link education and mental development. parallel processes that do not meet each other, and that child development is a complex dialectical process, that it has its own qualitative characteristics in different age periods of development, and that in psychology it is differentiated by several age periods.*

Key words: *mental development, division into young periods, statement of representatives of the theory about the correspondence of education and mental growth to each other (American psychologists Djeyms, Torndayk va ingliz psixologi Makdugall), zone of actual development, personalistic concept of psychology.*

Аннотация: *В данной статье представители теории о том, что обучение и воспитание имеют чрезвычайно важное значение в умственном развитии детей, что обучение и умственное развитие независимы друг от друга, связывают между собой образование и умственное развитие. параллельные процессы, не встречающиеся друг с другом, и что развитие ребенка представляет собой сложный диалектический процесс, что оно имеет свои качественные характеристики в разные возрастные периоды развития и что в психологии оно дифференцируется несколькими возрастными периодами.*

Ключевые слова: *психическое развитие, деление на молодые периоды, утверждение представителей теории о соответствии друг другу воспитания и умственного роста (американские психологи Djeyms, Torndayk va ingliz psixologi Makdugall), зона актуального развития, персоналистическая концепция психологии.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarning psixik jihatdan o'sishida ta'lim va tarbiya g'oyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi, ta'lim va psixik o'sish bir-biridan mustaqildir, degan nazariyaning namoyandalari ta'lim va psixik o'sishni bir-biriga duch kelmaydigan ikkita parallel jarayon deb hisoblanishi hamda bolaning rivojlanishi murakkab dialektik jarayonligi, u taraqqiyotning turli yosh davrlarida o'zining sifat xususiyatlariga ega bo'lishi va bu psixologiyada bir necha yosh davrlari bilan farqlanishi yoritilgan.*

Kalit so'zi: *psixik taraqqiyot, yosh davrlarga bo'linishi, ta'lim va psixik o'sish bir-biriga mos keladigan nazariyaning namoyandalari (amerikalik psixologlar Djeyms, Torndayk va ingliz psixologi Makdugall)ning da'vosi, aktual taraqqiyot zonasi, personalistik psixologiya kontseptsiyasi.*

Bolalarning psixik jihatdan o'sishida ta'lim va tarbiya g'oyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi XIX asrlarning o'rtalaridan tobora ko'p ta'kidlana boshlandi. Bolalar psixikasining o'sishi bilan ta'lim va tarbiyaning o'zaro munosabati haqidagi masalalarni hal etishga urinayotgan nazariyalar hozir ko'p topiladi. Hozirgi pedagogika va psixologiyada shu masalaga doir uch xil nazariya bor. Ulardan birida ta'lim-tarbiya va taraqqiyot jarayonlari bir-biridan mustaqil mavjuddir, degan g'oya olg'a suriladi. Ikkinchi nazariyada ta'lim- tarbiya ayni vaqtda taraqqiyotdir, ya'ni ta'lim bilan taraqqiyotning o'rtasida asos e'tibori bilan sezilarli tafovut yo'qdir, deb da'vo qilinadi. Nihoyat, uchinchi xil nazariya bo'yicha ta'lim-tarbiya va taraqqiyot jarayonlari, garchi boshqa-boshqa jarayonlar bo'lsa ham, bir-biriga mos kelar va bir- biriga ta'sir o'tkazar ekan.

Ta'lim va psixik o'sish bir-biridan mustaqildir, degan nazariyaning namoyandalari ta'lim va psixik o'sishni bir-biriga duch kelmaydigan ikkita parallel jarayon deb hisoblaydilar. Bu nazariyaning namoyandalari aqliy qobiliyatni aniqlash uchun dastlabki testlarni vujudga keltirgan edilar (Bine va Simon). Bu namoyandalar va ularning hozirgi izdoshlari aqliy qobiliyat — tug'mal bo'lib, unga ta'lim ham, muhit ham ta'sir etmaydi, degan fikrga asoslanadilar. Ta'lim va psixik taraqqiyot bir- biridan mustaqil, degan nazariya amalda ta'lim-tarbiya ishlarining hammasini bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olmasdan tuzishga olib keldi.

Ta'lim va psixik o'sish bir-biriga mos keladigan nazariyaning namoyandalari (amerikalik psixologlar Djeyms, Torndayk va ingliz psixologi Makdugall) ning da'vo qilishicha :

1) ikkala jarayon bir-biriga yaqin va parallel holda boradi – ta'lim- tarbiya bilan psixik o'sish qadam- baqadam boradi; 2) ta'lim va psixik o'sish bir vaqtda amalga oshadi. Bu nazariya ikki jarayonni aralashtirib, bir-biriga tenglashtirib qo'yadi. Bu ta'lim jarayoni o'rganilsa, psixik o'sish jarayoni ham o'rganilgan bo'ladi, degan xulosaga olib keladi. Bu nazariya bir tomonlama nazariya bo'lib, butun e'tiborni bilish faoliyatiga qaratadi-yu, bola shaxsining hissiyoti va irodasini e'tiborga olmaydi. Odam ongining roli, inson shaxsini tarkib toptiruvchi ijtimoiy hayot va amaliyotning roli kamsitiladi yoki inkor qilinadi. Ta'lim-tarbiya va psixik rivojlanish garchi har xil jarayon bo'lsa-da, bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladigan jarayonlardir, degan uchinchi nazariyaning namoyandasi – Koffkadir. Bu nazariya dastlabki ikki nazariyani birlashtirishga urinadi, nerv sistemasining yetilishi va o'qitish jarayonlarining o'zaro bog'lanishini va bir-biriga ta'sir etishini aniqlamoqchi bo'ladi. Nerv sistemasining yetilish jarayoni bolani o'qishga tayyorlaydi va o'qiy oladigan qilib qo'yadi, deb e'tirof etadi. O'qitish esa, o'z navbatida, nerv sistemasining yetilish jarayonini kuchaytiradi va oldinga suradi, deydi. Bu nazariya ikki jarayonning bir qadar o'zaro bog'langanligini ta'kidlashi bilan oldinga qarab bir qadam qo'yadi. Ammo bu o'zaro bog'lanishni abstrakt ravishda, ijtimoiy tarixiy hayot sharoitining ta'siridan tashqari, bolalarga ta'lim-tarbiya berish ta'siridan tashqarida tan oladi.

Bu nazariyalarning hammasi bolalar kamolotining hal qiluvchi tomonini ko'rmaydi, ya'ni bolalar psixikasining tarbiya va aktiv faoliyat jarayonida tarkib topishini payqaydi. Demak, psixologiyadagi muhim masalalardan biri taraqqiyot bilan ta'limning o'zaro

munosabati haqidagi, ya'ni ta'lim o'z orqasidan rivojlanishni ergashtirib boradimi yoki aksincha, rivojlanishga moslashib, sust ravishda uning orqasidan boradimi? degan masaladir.

Ta'lim va taraqqiyotning o'zaro munosabati qanday baholanishiga qarab, bu masalada 2 nuqtai - nazarni ajratib ko'rsatish mumkin. Nemis psixologi V.Shtern ta'lim psixik taraqqiyotning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni ilgari suradi. Uning ta'kidlashicha, bola tomonidan narsalar bilan tanishish va ularni bilib olish o'z-o'zidan amalga oshadi, ta'lim esa mustaqil, avtonom ravishda amalga oshadigan taraqqiyotga moslashadi (Personalistik psixologiya kontseptsiyasini yaratgan, ya'ni shaxsning yaxlitligi, psixik va fizik birliklarga bo'linmasligi to'g'risidagi nazariya). Bunga qarama - qarshi fikrni rus psixologi L.S.Vigotskiy bildiradi. U bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchi roli haqidagi qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi. Uning fikricha, ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtiradi. Birinchi fikrga binoan, ta'lim uchun imkoniyat yetguncha, aqliy jihatdan yetilish jarayoni kelguncha, passiv ravishda kutib turish lozim.

Ta'lim yetakchilik rolini bajaradi. Ikkala jarayon bir-biri bilan bog'liq: rivojlanish va ta'lim parallel tarzda sodir bo'ladigan ikki jarayon emas, ular bir butun jarayondir, deb ta'kidlaydilar. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga stimuly - turtki beradi, rivojlanishni o'z orqasidan ergashtirib boradi. Lekin rivojlanishga stimuly bo'lish bilan bir vaqtda ta'lim o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan taraqqiyot darajasining xususiyatlarini hisobga oladi. Shuningdek, L.S. Vigotskiyning taraqqiyotning ikki zonasi haqidagi g'oyasi ham rivojlanish jarayonini boshqarish uchun katta ahamiyat kasb etadi. L.S. Vigotskiy bola taraqqiyotining ikki zonasini ajratib ko'rsatadi:

1. Aktual taraqqiyot zonasi.
2. Yaqin kelajak taraqqiyot zonasi.

Agar bola biror ishni kattalar yordami bilan bajara olsa, bu uning yaqin rivojlanish darajasi, zonasidan dalolat beradi. Yaqin kelajak zonasi bizga bolaning ertangi kunini, rivojlanishining dinamik holatini aniqlashga yordam beradi. Agar bola topshiriqni mustaqil ravishda bajara olsa, bu uning aktual taraqqiyot zonasini ko'rsatadi. Shu bilan birga L.S.Vigotskiy ta'limtarbiya jarayonida bir tomondan, bolaga kuchi yetmaydigan, uning aktual rivojlanish darajasi va yaqin imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydigan talablar qo'ymaslik kerakligini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan esa, o'qituvchi bugun bola kattalar yordami bilan, ertaga esa mustaqil tarzda bajara olishini bilsa, bola taraqqiyotini jamiyat talablariga mos ravishda, maqsadga muvofiq tarzda takomillashtirib borishi mumkin.

Bolaning rivojlanishi murakkab dialektik jarayondir. U taraqqiyotning turli yosh davrlarida o'zining sifat xususiyatlariga ega bo'ladi. Psixologiyada bir necha yosh davrlari farqlanadi: D.B. El'konin bo'yicha yoshni quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1. Go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha.
2. Ilk bolalik davri – 1-3 yosh.
3. Maktabgacha yosh davri – 3-7 yosh.
 - 3a. Kichik va o'rta maktabgacha yosh davri – 3 dan 4-5 yoshgacha.
 - 3b. Katta maktabgacha yosh davri 4-5 dan 6-7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshi 7 – yoshdan 11 yoshgacha.

5. O'smirlik yosh davri 11-15 yosh.

6. Ilk o'spirinlik davri 16-18 yosh.

D.B. El'koninning tasnifi yetakchi faoliyat nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror turi ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil qiladi.

D.B. Elkonin bo'yicha yoshni davrlashtirish

Yosh davri	Yosh hegaralari	Yetakchi faoliyat turi
Go'daklik	0-1 yosh	Bevosita emotsional muloqat
Ilk bolalik	1-3 yosh	Predmetli faoliyat
Kichik va o'rta maktabgacha yosh davri	3-5 yosh	O'yin faoliyati
Katta maktabgacha yosh davri	5-7 yosh	Rolli-syujetli o'yinlar
Kichik maktab yosh davri	7-11 yoshgacha	O'qish faoliyati
O'smirlik yosh davri	11-15 yosh	Muloqot
Ilk o'spirinlik davri	15-18 yosh	O'quv - kasbiy faoliyat

V.A. Krutetskiy bo'yicha:

1. Chaqaloqlik davri - tug'ilgandan 10 kungacha.
2. Go'daklik davri – 1 yoshgacha.
3. Ilk bolalik davri – 1-3 yoshgacha.
4. Maktabgacha yosh davri – 3-5 yoshgacha.
5. Bog'cha yosh davri – 5-7 yoshgacha.
6. Kichik maktab yoshi davri – 7-11 yoshgacha.
7. O'smirlik davri – 11-15 yoshgacha.
8. Ilk o'spirinlik davri – 15-18 yoshgacha.

Har ikkala tasnif ham puxtaligidan, ularga qanday nuqtai nazardan yondashilganidan qat'iy nazar inson kamolotini to'la ifodalab berishga ojizlik qiladi. Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko'proq ma'lumot beradi. Xullas, ularda yoshlik, yetuklik, qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari to'g'risida nazariy va amaliy ma'lumotlar yetishmaydi. Shunga qaramay, ular o'rta maktab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson umrining barcha yosh davrlarini qamrab olgan davrlashtirish E.G'. G'oziyev, G.S. Abramova hamda horij psixologlari Greys Krayg, Don Bokumning nazariyalarida keltiriladi.

E.G'. G'oziyev bo'yicha:

1. Chaqaloqlik va go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha.
2. Ilk bolalik davri – 1-3 yoshgacha.
3. Maktabgacha yosh davri – 3-6 yoshgacha.
4. Kichik maktab yosh davri – 6-10 yoshgacha.
5. O'smirlik davri – 10-11yoshdan 14-15 yoshgacha.
6. Ilk o'spirinlik davri – 15-18 yoshgacha.
7. O'spirinlik davri – 18-22 yoshgacha (talabalik).
8. Yoshlik davri – 23-28 yoshgacha.
9. Yetuklik davri 1-bosqichi – 28-35 yoshgacha.
10. Etuklik davri 2-bosqichi – 36-55 (60) yoshgacha.

11. Keksayish davri – 61 (56)- 74 yoshgacha.
12. Keksalik – 75-90 yoshgacha. 13. Uzoq umr ko‘ruvchilar – 90 dan yuqori.

G.S. Abramova bo‘yicha:

1. Go‘daklik davri – tug‘ilgandan 2 yoshgacha.
2. Ilk bolalik davri – 2-4 yoshgacha.
3. O‘rta bolalik davri – 5-7 yoshgacha.
4. Bolalikning tugash davri – 8-12 yoshgacha.
5. O‘smirlik davri – 13-17 yoshgacha.
6. O‘spirinlik davri – 18-22 yoshgacha.
7. Kattalik davri – 23-30 yoshgacha.
8. O‘tish davri – 30-35 yoshgacha.
9. Yetuklik davri – 36-50 yoshgacha.
10. Keksayish davri – 51-65 yoshgacha.
11. Qarilik davri – 65 yoshdan yuqori.

Greys Krayg, Don Bokumning “Psixologiya razvitiya” (2006 y) kitobida insonning hayotiy yo‘li quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Perinatal davr – homila paydo bo‘lgandan bolaning tug‘ilishigacha bo‘lgan davr.
2. Go‘daklik – tug‘ilgandan 18-24 oylikkacha (2 yoshgacha) bo‘lgan davr.
3. Hayotning datlabki 2 yili (toddler bosqichi) – 12-15 oydan 2-3 yoshgacha bo‘lgan davr.
4. Ilk bolalik – 2-3 yoshdan 5-6 yoshgacha bo‘lgan davr.
5. O‘rta bolalik – 6-12 yoshgacha bo‘lgan davr.
6. O‘smirlik va o‘spirinlik – taxminan 12-18-27 yoshgacha bo‘lgan davr.
7. Ilk kattalik – 18-21 dan to 40 yoshgacha bo‘lgan davr.
8. O‘rta kattalik – 40 dan 60-65 yoshgacha bo‘lgan davr.
9. Kechki kattalik – 60-65 dan umr oxirigacha bo‘lgan davr.

Shuningdek, yoshni davrlashtirish muammosiga turli jihatdan yondoshilgan nazariyalar ham mavjuddir.

Z.Freyd bo‘yicha psixoseksual rivojlanish bosqichlari

1. Oral bosqich tug‘ilgandan 1 – 1.5 yoshgacha.

Bu davrda go‘dak og‘iz va lab sohalarining stimulyatsiyasidan qoniqish va lazzat oladi.

2. Anal bosqich (1 – 1.5 yoshdan 3 yoshgacha) chiqaruv funktsiyasi orqali qoniqish oladi.

3. Fallik bosqich (3 yoshdan 5 – 6 yoshgacha) erogen zona genitaliy sohasida joylashgan (Edipov kompleks yoki elektro kompleksi).

4. Latent bosqich (5 – 6 yoshdan 12 yoshgacha). Bunda jinsiy mayllar ikkinchi darajaga o‘tib, o‘zini namoyon qilmaydi.

5. Genital bosqich (12 yosh va undan yuqori) jinsiy mayllar pubertat va o‘smirlik davrida yana 1 darajaga o‘tadi.

Psixodinamik nazariya.

Amerika psixologi E.Erikson inson umrini 8 ta davrga ajratadi va ular o‘ziga xos, betakror xususiyatlarga ega deb hisoblaydi.

1- davr. Ilk go‘daklik (tug‘ilgandan 1 yoshgacha). Bu davrda tashqi dunyoga Ongsiz ishonch tuyg‘usi vujudga keladi. Buning asosiy sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi va jonkuyarligidir. Agar go‘dakda bu ishonch paydo bo‘lmay qolsa, ona bolaga yomon munosabatda bo‘lsa, voyaga yetganda umidsizlik vujudga keladi.

2-davr. Kechki go‘daklik (1 yoshdan 3 yoshgacha). Yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi shakllanadi. Bu esa o‘z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratib, intizom, ma’suliyat, javobgarlik, hurmat tuyg‘ulari tarkib topishiga zamin hosil qiladi. Anomal rivojlanish: ikkilanish, qobiliyatga shubhalanish, hayotga moslashmaganligini his qilish.

3-davr. Ilk bolalik (3–5 yoshgacha). Anomal rivojlanish: insonlarga befarqlik, tashabbusning sustligi, boshqa bolalarga hasad, beqarorlik. Tashabbus tuyg‘usi, qandaydir ishni bajarish mayli tarkib topadi, guruhiy o‘yinlar, tengqurlari bilan muloqatga kirishish muhim ahamiyatga ega.

4-davr. (5–11 yoshgacha). Bu davr maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan xarakterlanadi. Salbiy tomonlari – ong hayotning barcha qirralarini qamrab ololmaydi, muammolarni hal qilishda aql zakovat darajasining pastligi, bilimlarni o‘zlashtirishdagi qoloqlik. Anomal rivojlanish: shaxsiy kamchiliklarni his qilish, konformlik, passiv mehnat vazifalaridan qochish.

5-davr. (11–20 yoshgacha). O‘smirlik va o‘spirinlik, hissiy yetuklik. Betakror, o‘ziga xos yosh davri. Salbiy tomoni qat’iyatsizlik.

6-davr. (20–45 yoshgacha). Ilk (erta) yetuklik. Boshqa jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga keladi. Bundan tashqari yolg‘izlikka moyillik va odamovilik kabi yoqimsiz xususiyatlar bilan farqlanadi.

7- davr. O‘rta yetuklik davri (40–60 yoshgacha). Hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnat, ijodiyot, g‘amxo‘rlik, pusht qoldirish, tajriba uzatish) mahsuldorlik tuyg‘usi hamrox bo‘ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki bo‘ladi. Anomal rivojlanish: xudbinlik, o‘z-o‘ziga e’tiborini qaratish, ishida besaramjonlik, erta invalidlik, o‘zi haqida qayg‘urishni yo‘qolishi.

8-davr. Kechki yetuklik (60 va undan yuqori). Hayotdan qanoatlanish tuyg‘usi bilan xarakterlanadi. O‘tgan umri haqida o‘ylash, o‘limga tik qarash va undan qo‘rqmaslik. Salbiy tomoni – hayot faoliyatidan noumidlik, ko‘ngil sovish tuyg‘ulari. Umrni bekorga o‘tkazganidan qayg‘urish, vaqtni tez o‘tayotganidan, o‘zidan, boshqalardan qoniqmaslik, umrini boshqatdan yashashga xohish, hayotdagi betartiblikdan ranjish, o‘limdan qo‘rqish.

Psixodinamik nazariya asosini shaxsning xulqini emotsiya, mayl yordamida tahlil qilish tashkil etadi.

Kognitivistik yo‘nalish namoyondalaridan birinchi bo‘lgan J. Piaje aql - idrok nazariyasi va uning davrlari haqidagi ta’limotni yaratgan. Bu ta’limotda intellekt rivojlanish davrlari ko‘rsatib beriladi.

Bu davrlar:

1. Sensomotor intellekt (tug‘ilgandan 2 yoshgacha).
2. Operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha).
3. Konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha).

4. Formal operatsiyalar davri.

Har bir yosh davri o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, xarakterli qarama-qarshiliklari, psixikaning sifat xususiyatlari, psixik jihatdan yangi hislatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida vujudga keladi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir yosh davrdan 2-yosh davriga o'tish tinch yo'l bilan yoki inqirozlar bilan kechishi mumkin. Buni pedagog albatta bilishi zarur. Inqiroz taraqqiyotning turli bosqichlarida vujudga kelishi mumkin. Eng yorqin namoyon bo'ladigan inqirozlar quyidagilar:

1. Yangi tug'ilgan chaqaloqlik inqirozi.
2. Uch yosh inqirozi.
3. O'smirlilik davriga o'tishdagi inqiroz.
4. O'rta yosh inqirozi.

Agar kattalar tomonidan bolaning yangi ehtiyojlari hisobga olinsa hamda ularni qondirish imkoniyatlari shakllanishiga yordam berilsa, inqiroz vujudga kelmasligi ham mumkin. Bunda shaxsning rivojlanishi inqirozsiz, tinch yo'l bilan amalga oshishi ta'minlanadi.

Shuningdek, pedagog har bir yosh davrida psixikaning muayyan tomonlari samarali rivojlanishi uchun optimal imkoniyatlar mavjud ekanligini ham bilishi lozim. Bunday davr senzitiv davr deb ataladi. Masalan: ilk bolalik davri, ya'ni bir yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davr bola nutqining rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Kichik maktab yosh davri – o'quv malakalarining rivojlanishi uchun qulaydir. Har bir yosh davri bir qancha xususiyatlar bilan xarakterlanadi.

Bular:

1. Oilada va jamoada bola holatining o'zgarishi.
2. Ta'lim-tarbiya shakllarining o'zgarishi.
3. Bola organizmi ayrim xususiyatlarining voyaga yetishi.
4. Bolada yangicha faoliyat turining vujudga kelishi.

Har bir yosh davrida faoliyatning biror turi yetakchilik rolini bajaradi. Faoliyatning yetakchi turi tushunchasi A.N. Leontevning asarlarida ochib berilgan.

Faoliyatning yetakchi turi – ma'lum yosh davrida bolaning psixikasida, uning psixik jarayonlari va psixik xususiyatlarida muhim o'zgarishlarni vujudga keltiruvchi faoliyat turidir. Har bir yosh davrida faoliyatning bir turi uchun ehtiyoj seziladi. Masalan: go'daklik davridagi yetakchi faoliyat turi – bevosita emotsional muloqat bo'lib, uning asosida oriyentirovka va sensomotor-manipulyativ harakatlar, ya'ni ko'rish, eshitish, muskul-harakat sezgilari, idrok bilan boshqariladigan harakatlar shakllanadi. Bu yosh davridagi eng muhim yangilik – boshqa kishilar bilan bo'ladigan muloqotga ehtiyoj va ularga muayyan emotsional munosabatning shakllanishidir. Ilk bolalik davrida faoliyatning yetakchi turi – predmetli harakatlar. U orqali bola kattalar bilan hamkorlikda predmetlar bilan bajariladigan harakatlarni o'zlashtiradi. Bu davrdagi yangilik – nutqning rivojlanishi va ko'rgazmali harakatli tafakkurining taraqqiyotidir.

Maktabgacha bo‘lgan yosh davrida rolli o‘yinlar faoliyatning yetakchi turi bo‘lib qoladi. Kichik maktab yoshida faoliyatning yetakchi turi – o‘qish faoliyati hisoblanadi. O‘qish faoliyatida xotira shakllanadi, predmetlar va tashqi dunyo haqidagi bilimlar o‘zlashtiriladi. O‘smirlik davrida – muloqot yetakchilik vazifasini bajaradi. Ilk o‘spirinlik davrida yetakchi faoliyat turi – o‘quv kasbiy faoliyati bo‘lib, bu faoliyat jarayonida dunyoqarash, kasbiy qiziqishlar, o‘z-o‘zini anglash, orzu va ideallar shakllanadi.

Demak, har bir kishi uchun yosh xususiyatlari xosdir. Ammo har bir yosh davrining ichida individual farqlar ham mavjud. Bu farqning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin:

1. Hayot, faoliyat va tarbiya sharoitlari.
2. Tabiiy individual farqlar – nerv sistemasining tipologik xususiyatlari.

Ta'lim - tarbiya ishlarida o‘quvchilarning psixologik va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur, ya'ni mazkur yoshdagi bolalarning talablariga, imkoniyatlari, xususiyatlariga mos keladigan pedagogik ish shakl, metod va vositalarini tanlash va qo‘llash lozim.

Psixik rivojlanish qonuniyatlari

Psixik rivojlanishda muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarining o‘ziga xosligi hayot sharoitiga, faoliyat va tarbiyaga bog‘liq. Psixik taraqqiyotning quyidagi qonuniyatlarini farqlash mumkin:

1. Psixik rivojlanishning notekisligi. Har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funktsiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to‘xtab qolmaydi. Bolaning rivojlanishidagi ayrim davrlarda psixikaning u yoki bu yo‘nalishlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo‘ladi va ularning ba'zilari vaqtinchalik, o‘tkinchi xarakterda bo‘ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo‘lgan yosh davrlari senzitiv davr deyiladi. (L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev).

Masalan; 1 yoshdan 5 yoshgacha nutqning rivojlanishi, kichik maktab yoshida o‘qituvchining so‘zi, 15-20 yosh matematik tafakkur rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi.

2. Psixikaning integratsiyasi qonuni. Inson psixikasi o‘z taraqqiyoti davomida tobora ko‘proq yaxlitlik, birlik, mustahkamlik va doimiylik xususiyatlarini kasb eta boradi. N.D. Levitovning ko‘rsatishicha, kichkina bola psixik jihatdan turli fragmentar psixik holatning kichik bir sistemaga uyushtirilganidan iboratdir. Psixik rivojlanish psixik holatning asta-sekin o‘sib, shaxs xislatlariga aylanishini anglatadi.

Plastiklik va kompensatsiya imkoniyati. I.P. Pavlov faqatgina tegishli ta'sir ko‘rsatilsa, hamma narsani yaxshi tomonga o‘zgartirish mumkinligini ta'kidlab, nerv plastikligini ko‘rsatib o‘tgan. Ta'limtarbiya sharoitida bolaning psixikasini maqsadga muvofiq o‘zgartirish imkoniyati nerv sistemasining ana shu plastikligiga asoslanadi. Plastiklik kompensatsiya uchun ham yo‘l ochib beradi.

1. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.

2. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. —Pedagogika va psixologiyall (ilmiy ommabop seriya). T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.

3. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. Izd. vtoroye, dop., ispr. i pererab. - M.: Logos, 2002.- 384 s.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq. 2000. - 111 b.
5. V.A.Krutetskiy. "Pedagogik psixologiya asoslari". –T.: O‘qituvchi.1976
6. Nemov R.S. Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vьssh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. – 4-e izd. – M.: Gumanit.izd. sentr VLADOS, 2003.-Kn.2: Psixologiya obrazovaniya.
7. Shaxs inqiroz holatining ijtimoiy-psixologik sabablarini o‘rganish va ularni bartaraf etish. -T.:, 1997. – 39 b.
8. Muratova Sh.N. O‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimliy jihatlari. O‘zMU xabarlarlari, {1/2/1}ISSN: 2181-7324, 2020, 6-son, - B. 91-95, [19.00.00 №10]
9. Muratova Sh.N. O‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining ilmiy-nazariy asoslari va uning o‘rganilganlik holati. O‘zMU xabarlarlari, {1/2/1}ISSN: 2181-7324, 9-son, - B. 82-86, [19.00.00 №10]
10. Muratova Sh.N. Otaning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni. Ta'lim, fan va innovatsiya, ilmiy axborotnoma. 2022, 5-son, - B. 82-86, [19.00.00 №10]
11. O‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari. SamDU ilmiy axborotnoma. ISSN: 2091-54-46, 2020, 6-son (124), - B. 100-105. [19.00.00 №10]
12. Muratova Sh.N. Nikoh oldi omillarining yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari. BuxDU psixolo-giya ilmiy jurnal. ISSN 2181-5291, 2021, 3-son, - B. 84-90. [19.00.00 №10]
13. Muratova Sh.N. Oilada o‘g‘il bolalarni pedagogik va psixologik tarbiyasida nazariy qarashlar tahlili. NamDU ilmiy axborotnomasi. ISN: 2181, 2019, 6-con, - B. 409-415, [19.00.00 №10].
4. Muratova Sh.N. Problems of youth for family life. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, /ISSN: 1475-7192, Volume 24, № 10, 2020, <https://www.psychosocial.com/> p. 282-291.
15. Muratova Sh.N. The place of the psychological environment in the family to increase student activity in the educational process. //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) ISSN: 2278-4853 Impact Factor: SJIF 2020/882 "RESEARCH INVESTIGATIONS OF GLOBAL WORLD ON PANDEMIC TIME" MAY 2020, DOI NUMBER: 10.5958/2278-4853, ISSN: 2278-4853, Volume 9, № 5, May, 2020, <https://www.tarj.in>. p. 8-11.
16. Muratova Sh.N. MARRIAGE AGE AND NEGATIVE CONSEQUENCES OF EARLY MARRIAGE. // European Scholar Journal (ESJ). Available Online at, ISSN: 2660-5562, Volume 2, № 3, March, 2021, <https://scholarzest.com> /p. 27-30.